



O'QUVCHILARNING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

U.Bekmatova

Sirdaryo viloyati PMM Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida oquvchilar kompetentligini shakllantirishda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasidan foydalanish usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: rivojlantiruvchi ta'lim, o'quv topshiriqlari, fikriy operatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, interfaol usullar.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini amaliyotda qo'llashda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi, chunki o'quv topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. O'quv topshiriqlari nima va ularning muayyan turlari mavjudmi? - degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

O'quv topshiriqlari – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchini faol harakatga undaydigan omil o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Ko'zlangan maqsadlar tizimi ularning bajarilishini ta'minlovchi harakatlar tizimi bilan uzviy bog'lanadi. Shu sababli o'quv topshiriqlarini to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O'quv topshiriqlarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini aniqlay olish;
2. Darsning maqsadini inobatga olgan holda unga muvofiq o'quv topshiriqlari tizimini tuzish.

Rossiyalik tadqiqotchi D.Tollingerova tomonidan taklif etilgan o'quv topshiriqlari taksonomiyasidan rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin. Quyida o'quv topshiriqlari taksonomiyasi keltiriladi:

I. Xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi topshiriqlar:

- 1) xabardor bo'lishga oid topshiriqlar;



- 2) alohida dalil, son, tushunchalarni yodga olishga doir topshiriqlar;
- 3) ta'rif, me'yor, qoidalarni yodga olishga oid topshiriqlar;
- 4) katta hajmdagi matn, bo'lim, she'r, jadval va boshqalarni yodga olishga oid topshiriqlar.

II. Raqamlar va ma'lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni bajarishni taqozo etuvchi topshiriqlar:

- ❖ dalillar (o'lchash, tortish, hisoblash va b.)ni aniqlashga oid topshiriqlar;
- ❖ dalillarni keltirish va ta'riflashga (hisoblash, sanab o'tish va b.) ga doir topshiriqlar;
- ❖ harakatlar jarayoni va usullarini tashkil etish va tavsiflashga oid topshiriqlar;
- ❖ ajratish va yig'ish (tahlil va sintez)ga doir topshiriqlar;
- ❖ qiyoslash va farqlash (taqqoslash va bo'lish)ga oid topshiriqlar;
- ❖ 6)taqsimlash (kategoriyalashtirish va tasniflash)ga doir topshiriqlar;
- ❖ dalillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik (sabab, oqibat, maqsad, vosita, ta'sir, foydalilik, vosita, usullar)ni aniqlashga oid topshiriqlar;
- ❖ abstraktsiya, aniqlashtirish va umumlashtirishga doir topshiriqlar;
- ❖ murakkab bo'lmagan (kattalik, o'lchamlari noma'lum bo'lgan) misollarni echish.

III. Raqamlar bilan ma'lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy peratsiyalarni bajarishni taqozo etuvchi topshiriqlar:

- ❖ ko'chirish (biror joyga uzatish, shaklini o'zgartirish)ga oid topshiriqlar;
- ❖ bayon qilish (sharhlash, ma'nosini tushuntirish, mohiyatini yoritish, asoslash)ga doir topshiriqlar;
- ❖ induksiya (juz'iy xususiyatga tayangan umumiy xulosa chiqarish)ga oid topshiriqlar;
- ❖ deduktsiya (umumiy holatga ko'ra xususiy xulosalar chiqarishga) doir topshiriqlar);
- ❖ isbotlash (dalillashtirish) va tekshirishga oid topshiriqlar;
- ❖ baholashga doir topshiriqlar

IV. Ma'lumotlarni e'lon qilishga oid topshiriqlar:



- ❖ umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot, qoralama, mazmun va b.ni ishlab chiqishga doir topshiriqlar;
- ❖ hisobot, ma'lum muammoga bag'ishlangan taqdimot, ma'ruzalarni tayyorlashga oid topshiriqlar;
- ❖ mustaqil ravishda yozma ishlar, chizmalar, loyihalar va b.ni bajarishga doir topshiriqlar

V. Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar:

- ❖ amaliy takliflarni ishlab chiqarishga doir topshiriqlar;
- ❖ muammoli masala va vaziyatlarni hal qilishga oid topshiriqlar;
- ❖ savollarni qo'yish va masala yoki topshiriqlarni ifodalashga doir topshiriqlar;
- ❖ shaxsiy kuzatishlarga asoslangan holda echimni topishga oid
- ❖ (sensor – sezgi, his qilishga asoslangan) topshiriqlar;
- ❖ shaxsiy mulohazaga asoslangan holda echimni topishga doir (ratsional echimga asoslangan) topshiriqlar

Taksonomiya asosida o'qituvchilar turli murakkablikdagi o'quv topshiriqlarini shakllantirish va ular yordamida ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari orasida rivojlantiruvchi ta'lim o'z o'rniga ega. Rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishda o'qituvchi o'quv topshiriqlarini to'g'ri tuza olish ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim. Turli murakkablik darajasidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini xolis baholash imkonini beradi, shaxsning qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kompetensiyaviy yondasuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va oquv dasturi; Biologiya, Toshkent-2017 y
2. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya moduli bo'yicha o'quv qo'llanma. TDPU. Toshkent, 2017.



3. Shaxmurova G., Yunusova N., Po`latova Z.. “Biologiya o`qitish metodikasi” moduli,
2019 yil

